



**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



## THE MYSTICAL ESSENCE OF THE CONCEPTS OF THE WORLD AND TRANSIENCE IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

**Shoirakhon Khujaeva**

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philology*

*Doctoral Student*

*Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi*

*E-mail: [shoiraxon24@gmail.com](mailto:shoiraxon24@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** world, fana, irfan, Sufism, nafs, divine consent (riza), renunciation of the world, spiritual perfection, classical Eastern literature, symbolic images.

**Received:** 19.06.26

**Accepted:** 20.06.26

**Published:** 21.06.26

**Abstract:** This article provides a literary-philosophical analysis of the mystical (irfanic) essence of the concepts of “world” (dunyo) and “fana” in the works of Alisher Navoi. The study reveals the Sufi interpretation of the image of the world in the poet’s writings and elucidates its symbolic meaning as a manifestation of carnal desires and transient worldly interests. Furthermore, the concept of fana is examined as a process of renouncing the egoistic self, attaining spiritual purification, and ascending toward divine perfection.

The article analyzes the interrelation between the concepts of world and fana in Alisher Navoi’s oeuvre and determines their place within the Sufi-mystical system of thought. The findings demonstrate that Navoi does not advocate a complete rejection of the world; rather, he promotes a proper and conscious attitude toward it, while interpreting the station of fana as a spiritual stage leading an individual to moral and spiritual perfection.

## ALISHER NAVOIY IJODIDA DUNYO VA FANO KONSEPSIYALARINING IRFONiy MOHIYATI

**Shoirakhon Khujaeva**

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va*

*adabiyoti universiteti doktoranti*

*e-mail: [shoiraxon24@gmail.com](mailto:shoiraxon24@gmail.com)*

*Toshkent, O‘zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** dunyo, fano, irfon, tasavvuf, nafs, rizo, tarki dunyo, maʼnaviy kamolot, Sharq mumtoz adabiyoti, ramziy obrazlar.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodida “dunyo” va “fano” konsepsiyalarining irfoniy mohiyati badiiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir asarlarida dunyo timsolining tasavvufiy talqini, uning nafsoniy mayllar va oʻtkinchi manfaatlar majmui sifatidagi ramziy maʼnosi ochib berilgan. Shuningdek, fano konsepsiyasi insonning nafsoniy “men”dan voz kechishi, ruhiy poklanish va ilohiy kamolot sari yuksalish jarayoni sifatida yoritilgan.

Maqolada dunyo va fano tushunchalarining Alisher Navoiy ijodida oʻzaro aloqadorligi, ularning tasavvufiy-irfoniy tizimdagi oʻrni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga koʻra, Navoiy dunyoni mutlaq inkor etmay, unga toʻgʻri munosabatda boʻlish gʻoyasini ilgari suradi va fano maqomini insonni maʼnaviy komillikka eltuvchi irfoniy bosqich sifatida talqin etadi.

---

**МИСТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КОНЦЕПЦИЙ МИРА И БРЕННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ**

**Шоирахон Хужаева**

*Доктор философии (PhD) по филологическим наукам*

*Докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои*

*E-mail: [shoiraxon24@gmail.com](mailto:shoiraxon24@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** мир (дунья), фана, ирфан, суфизм, нафс, риза, отречение от мира, духовное совершенствование, классическая восточная литература, символические образы.

**Аннотация:** В данной статье в художественно-философском аспекте анализируется ирфанская сущность концептов «дунья» (мир) и «фана» в творчестве Алишера Навои. В исследовании раскрывается суфийская интерпретация образа мира в произведениях поэта, а также его символическое значение как совокупности нафсических стремлений и преходящих земных интересов. Кроме того, концепт фана рассматривается как процесс отказа человека от своего эгоистического «я», духовного очищения и восхождения к божественному совершенству. В статье анализируются взаимосвязь понятий мира и фана в творчестве Алишера Навои, а также их место в суфийско-ирфанской

---

системе мировоззрения. Результаты исследования показывают, что Навои не призывает к абсолютному отрицанию мира, а выдвигает идею правильного отношения к нему, рассматривая состояние фана как духовную ступень, ведущую человека к нравственному и духовному совершенству.

---

**Kirish.** Sharq mumtoz adabiyoti tarixida Alisher Navoiy ijodi inson ma'naviy kamoloti, ilohiy ishq va tasavvufiy-irfoniy tafakkurning yuksak namunasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Mutafakkir shoir asarlarida inson va borliq munosabati, dunyoning o'tkinchiligi, nafsni poklash hamda Haq visoliga yetishish masalalari chuqur falsafiy va badiiy talqin etilgan. Ayniqsa, "dunyo" va "fano" tushunchalari Navoiyning irfoniy qarashlarini ifodalovchi muhim konseptlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tasavvuf ta'limotida dunyo moddiy mayl va nafsoniy ehtiroslar manzili sifatida talqin qilinsa, fano insonning o'z "men"idan voz kechib, ilohiy haqiqat sari intilishi va ma'naviy kamolot bosqichiga erishishini anglatadi. Alisher Navoiy ushbu tushunchalarni nafaqat diniy-irfoniy mazmunda, balki yuksak badiiy-estetik vositalar orqali ham ifodalagan. Shoir ijodida dunyoning bevafoqligi, umrning o'tkinchiligi hamda Haq ishqida foniy bo'lish g'oyalari yetakchi mavzulardan biri sifatida tasvirlanadi.

Bugungi globallashuv va ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasi jarayonida Navoiyning irfoniy merosini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, shoir ijodidagi dunyo va fano konsepsiyalarining tasavvufiy mohiyatini ochib berish uning badiiy tafakkuri hamda Sharq irfoniy adabiyoti taraqqiyotidagi o'rnini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida dunyo va fano konsepsiyalarining irfoniy mohiyati, ularning tasavvuf falsafasi bilan uzviy bog'liqligi hamda badiiy ifoda xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sharq mumtoz adabiyotida dunyo obrazi va uning ramziy-tasavvufiy talqini ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markaziy obyektlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tasavvuf falsafasida dunyoning o'tkinchiligi, insonning moddiy olamga munosabati hamda "fano" tushunchasining irfoniy mohiyati Sharq mutafakkirlari ijodida yetakchi g'oyalardan biri sifatida talqin etilgan. Shu bois mazkur masala Sharq va G'arb olimlari tomonidan turli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

Fors-tojik mumtoz adabiyoti va tasavvufiy tafakkur masalalarini o'rganishda Y.E. Bertels, M.N. Osmanov, A. Mirzayev, I.S. Braginskiy, J. Trimengem, M.T. Stepanyans hamda M.L. Reysnerlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda tasavvuf

adabiyotidagi dunyo obrazi, uning ramziy mohiyati hamda insonning ruhiy kamolot jarayoni bilan bog‘liq jihatlari keng yoritilgan. Xususan, ushbu olimlarning ilmiy qarashlarida dunyo tushunchasi ko‘proq foniylik, nafs va moddiy mayllar timsoli sifatida talqin qilinib, fano konsepsiyasi ilohiy haqiqat sari ruhiy yuksalish bosqichi sifatida izohlanadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham Alisher Navoiy ijodidagi dunyo obrazi va tasavvufiy-irfoniy qarashlar turli aspektlarda tadqiq etilgan. A. Qayumov, A. Hayitmetov, A. Rustamov, N. Komilov, Y. Is‘hoqov, I. Haqqulov, H. Boltaboyev, B. To‘xliyev, N. Jabborov, S. Rafiddinov, E. Ochilov, B. Rajabova hamda M. Asadovlarning ilmiy ishlarida Navoiy asarlaridagi dunyo timsolining badiiy-estetik, falsafiy va tasavvufiy xususiyatlari tahlil qilingan.

Jumladan, A. Hayitmetov Navoiy she‘riyatidagi dunyo, zamon va zamon ahli bilan bog‘liq obrazlarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini ochib bergan hamda shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tahlil qilgan. [5] I. Haqqulov esa tasavvuf ta‘limotidagi tarki dunyo, nafs va ruhiy poklanish masalalarini yoritish orqali Navoiy ijodidagi irfoniy qatlamni chuqur tahlil etgan. [6,7] Tadqiqotchining qarashlari “dunyo” va “fano” tushunchalarining tasavvufiy mohiyatini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, N. Komilov, Y. Is‘hoqov va H. Boltaboyevlarning tadqiqotlarida Alisher Navoiy ijodining tasavvufiy poetikasi, ramziy obrazlar tizimi hamda irfoniy tafakkur masalalari keng yoritilgan. Ushbu ilmiy qarashlar shoir asarlaridagi dunyo va fano konsepsiyalarining semantik hamda badiiy-strukturaviy xususiyatlarini tadqiq etishda muhim metodologik manba hisoblanadi.

Tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy ijodida dunyo va fano tushunchalari alohida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro konseptual munosabati va irfoniy-badiiy yaxlitligi maxsus tadqiq obyektiga yetarli darajada aylantirilmagan. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni yoritishga qaratilgani bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiy ijodidagi dunyo va fano konsepsiyalarining irfoniy mohiyatini yoritishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Dastlab mumtoz adabiyot va tasavvuf falsafasiga oid nazariy manbalar tahlil qilinib, mazkur tushunchalarning Sharq irfoniy tafakkuridagi mazmuni aniqlandi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, germeneytik, struktur-semantik va kontekstual tahlil metodlari qo‘llanildi. Qiyosiy-tipologik metod orqali Navoiy asarlaridagi dunyo va fano konsepsiyalarining tasavvufiy manbalar bilan mushtarak hamda o‘ziga xos jihatlari o‘rganildi. Germaneytik yondashuv asosida matnlardagi ramziy-irfoniy ma‘nolar sharhlanib, obrazlarning botiniy mazmuni ochib berildi.

Struktur-semantik tahlil yordamida dunyo, fano, nafs, ishq va visol tushunchalarining o‘zaro semantik munosabatlari aniqlandi. Kontekstual tahlil esa ushbu konsepsiyalarning shoir yashagan

davrning ijtimoiy-ma'naviy muhiti hamda tasavvufiy tafakkur an'analari bilan bog'liqligini yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqotning manbaviy asosini Alisher Navoiyning lirik devonlari va "Xamsa" dostonlari tashkil etadi. Shuningdek, tasavvuf falsafasi, Sharq mumtoz poetikasi hamda mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanildi.

Ushbu metodologik yondashuvlar Alisher Navoiy ijodida dunyo va fano konsepsiyalarining badiiy-estetik hamda irfoniy mohiyatini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

**Tahlillar va natijalar.** Alisher Navoiy ijodida dunyo timsoli tasavvufiy-irfoniy tafakkurning markaziy konseptlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Buyuk mutafakkir dunyoni ko'pincha insonni Haq yo'lidan chalg'ituvchi, nafsoniy istak va moddiy mayllar manbai sifatida talqin qiladi. Shoir nazarida dunyoga ortiqcha bog'lanish inson qalbini ma'naviy komillikdan uzoqlashtiradi, uni foniy hoy-u havaslar domiga muhtalo etadi. Shu bois Navoiy asarlarida dunyo va fano tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq holda talqin qilinib, biri ikkinchisini anglash uchun semantik asos vazifasini bajaradi.

Mazkur g'oyalar, ayniqsa, shoirning Hazrat Ali hikmatlari asosida yaratilgan "Nazm ul-javohir" asarida yorqin ifodasini topgan. Jumladan, "Qalbning shifosi – qazoga rozi bo'lish" mazmunidagi hikmat asosida yozilgan quyidagi ruboiyda dunyo va fano masalalari rizo konsepti bilan bog'liq ravishda irfoniy talqin etiladi:

Har kimga livoyi charxi farsud kerak,  
Ko'nglida sipehr dardi mavjud kerak.  
Har kimgaki, ko'ngli dardi nobud kerak,  
Har neki qazodin o'lsa, xushnud kerak. [1.147]

Ruboiyda qo'llangan "livoyi charxi farsud" obrazi ramziy xarakterga ega bo'lib, unda "charx" dunyo ma'nosida, "bayroq" esa hukmronlik va maqsadga erishish timsoli sifatida qo'llangan. Shoirning ta'kidlashicha, kimning qalbida dunyo ustidan hukmronlik qilish istagi mavjud bo'lsa, uning ko'ngli dunyo dardiga muhtalodir. Bu yerda dunyo nafaqat moddiy olam, balki insonni Haqdan uzoqlashtiruvchi nafsoniy mayllar majmui sifatida talqin qilinmoqda. Ruboiyning keyingi misralarida esa qalbni dunyo dardidan xalos etish yo'li sifatida "rizo" maqomi ilgari suriladi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, qazoyi qadarga rozi bo'lish insonning nafsoniy istaklardan voz kechib, ilohiy iroda oldida taslim bo'lishini anglatadi. Mazkur ruboiy shoirning "Sab'ai sayyor" dostonidagi quyidagi baytlar bilan mazmunan hamohangdir:

Sen chu ursang fano yo'lida alam,  
Yo'qqa mumkin emas yetishmak alam.  
Alamin ko'rmayin desang yo'q bo'l,  
Seni yo'q topsa o'zga netgay ul? [2.382]

Baytlarda “alam” so‘zining tajnis san’ati asosida ikki ma’noda qo‘llanishi shoir badiiy mahoratini namoyon etadi. Birinchi holatda “alam” bayroq ma’nosini, ikkinchisida esa dard va iztirob ma’nosini anglatadi. Shoirning fikricha, inson fano yo‘lida o‘z nafsi va dunyoviy istaklarini yo‘q qila olsa, dunyo azoblaridan ham xalos bo‘ladi. Chunki “yo‘q” narsaga alam yetishi mumkin emas. Bu yerda fano insonning jismoniy yo‘qolishi emas, balki uning nafsoniy “men”dan voz kechib, ma’naviy poklanish sari yuz tutishini anglatadi.

Umuman, Navoiy talqinidagi fano tasavvufdagi “o‘lmasdan avval o‘lish” g‘oyasi bilan mushtarak bo‘lib, insonning ichki ruhiy yangilanishini bildiradi. Shoir nazarida haqiqiy komillik dunyo mayllaridan voz kechish va qalbni ilohiy ishq bilan poklash orqali yuzaga chiqadi. Shu ma’noda, fano insonni haqiqat va ma’rifat nuriga eltuvchi irfoniy maqom sifatida talqin etiladi. “Nazm ul-javohir”dagi yana bir ruboiyda dunyoga mukkasidan ketishning oqibatlarini keskin tanqid qilinadi:

Dunyo bila necha zebu oro qilmoq,  
Ul zeb ila do‘zax o‘ti barpo qilmoq.  
Mumkin emas ersa tarki dunyo qilmoq,  
Uqbo bila xushtur ani savdo qilmoq. [1.139]

Mazkur ruboiyda dunyo ne‘matlariga ortiqcha berilish insonni ma’naviy halokatga olib boruvchi omil sifatida talqin qilinadi. Shoirning ta’kidlashicha, inson dunyo ziynatlari bilan bezangan sari aslida o‘zi uchun “do‘zax o‘ti” tayyorlaydi. Bu yerda dunyo matohlari nafsni kuchaytiruvchi va inson qalbini haqiqatdan pardalovchi vosita sifatida ko‘rsatiladi. Ruboiyning xulosa qismida esa dunyoni butkul tark etish emas, balki uni oxirat manfaatlari bilan “savdo qilish”, ya’ni foni hayotni boqiy maqsadlarga xizmat qildirish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu esa Navoiyning dunyodan butunlay voz kechishni emas, balki unga ma’naviy-me’yoriy munosabatda bo‘lishni targ‘ib qilganini ko‘rsatadi.

Demak, Alisher Navoiy ijodida dunyo va fano konsepsiyalari o‘zaro chambarchas bog‘langan holda talqin qilinadi. Shoir dunyoni inson qalbini egallovchi o‘tkinchi mayllar manbayi sifatida tasvirlar ekan, fanoni ana shu mayllardan xalos bo‘lish va ilohiy haqiqat sari yuksalish maqomi sifatida talqin qiladi. Natijada Navoiy poetikasida dunyo va fano tushunchalari insonning ma’naviy komillikka erishish jarayonini ifodalovchi muhim irfoniy-estetik konseptlarga aylanadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari Alisher Navoiy ijodida dunyo va fano konsepsiyalari tasavvufiy-irfoniy tafakkurning o‘zaro uzviy bog‘liq ikki muhim kategoriyasi sifatida talqin etilishini ko‘rsatdi. Shoir nazarida dunyo shunchaki moddiy borliq emas, balki insonni Haqdan uzoqlashtiruvchi nafsoniy mayllar, o‘tkinchi manfaatlar va aldanchi qadriyatlar tizimini anglatadi. Shu bois u ko‘pincha foni, bevafo va ma’naviy sinov makoni sifatida tasvirlanadi.

Tahlillar asosida Navoiy poetikasidagi fano konsepsiyasi jismoniy yo‘q bo‘lish emas, balki nafsoniy “men”dan voz kechish, ruhiy poklanish va ilohiy kamolot sari yuksalish jarayonini ifodalashi aniqlandi. Bu jihatdan dunyo va fano tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki insonning ma’naviy takomil yo‘lini belgilovchi yagona irfoniy tizimning o‘zaro bog‘liq unsurlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot, shuningdek, Navoiy dunyoni mutlaq inkor etmaganini, balki uni ma’rifiy va axloqiy kamolot vositasi sifatida talqin qilganini ko‘rsatdi. Shoirning bu qarashlari Qur‘on, hadis va tasavvufiy ta’limotlar bilan uzviy uyg‘unlashgan holda yuksak badiiy-estetik shaklda ifodalangan.

Demak, Navoiy ijodidagi dunyo va fano konsepsiyalari insonning komillik sari ruhiy yuksalishini aks ettiruvchi fundamental irfoniy-estetik kategoriyalar bo‘lib, ularni o‘rganish shoir badiiy tafakkuri hamda Sharq tasavvufiy-falsafiy merosining mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Алишер Навоий. Назм ул-жавохир. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Т.: Фан, 1999.
2. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. МАТ. 20 жилдлик. 10-жилд. – Тошкент: Фан, 1992.
3. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибкирони (Монография) – Тошкент: Адабиёт. 2021.
4. Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси (Таржимон ва изоҳлар муаллифи: Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф). – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022.
5. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси (тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр). – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
6. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 2-китоб. – Тошкент: Фан, 2011.
7. Ҳаққул И. Навоий шеърятда фано талқинлари / Мерос ва моҳият. – Тошкент: Маънавият. 2008.